

**TALABALARDA NUTQIY, LINGVOPEDAGOGIK  
KOMPETENTSIYALARINI MUSTAQIL TA'LIM VA O'QUV  
TOPSHIRIQLARI DARSLIKLAR BILAN ISHLASH ASOSIDA METODIK  
TAKOMILLASHTIRISH**

TAFU Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi  
**Altibayeva Malika Kuvandikovna**

***Annotatsiya:** Talabalatrni nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini mustaqil ta'lif va o‘quv topshiriqlari asosida takomillashtirishning metodik-didaktik xususiyatlarini metodik rivojlantirish imkoniyatini yaratilishi lingvopedagogik kompetensiyalarini takomillahtirish ilmiy-metodik asoslab berilgan. Talabalarning fanga qiziqishi, hamda bir o‘quv topshirig‘ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko‘nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi, talabalarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarga oid topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi, topshiriqlarni zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun’iy intellekt bilan to‘g‘ri muloqot qila olishi, joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi didaktik asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** didaktika, sun’iy intellekt, nutqiy kompetensiya, lingvodidaktika, lingvistik kompetensiya, pedagogika, psixologiya, pragmatika, ilmiy-metodik asoslar, o‘zbek tilshunosligi, metodika, axborot-retseptiv usuli, ilmiy-metodik asos, induktiv, deduktiv, leksikologiya, tovushni tahlil, kommunikativ kompetensiya, yozuv ko‘nikmasi, metodologik tamoyil.*

**Аннотация:** Научно-методически обоснована возможность методического развития методико-дидактических особенностей совершенствования речевых и лингвистических компетенций студентов на основе самостоятельного обучения и учебных заданий для повышения их лингвопедагогических компетенций. Обосновано, что целесообразно формировать интерес студентов к предмету, а также предоставлять им возможность развивать несколько речевых навыков в рамках одного учебного задания. Такой подход способствует тому, чтобы студенты осознанно выполняли задания, связанные с речевыми и лингвистическими компетенциями, следовали дидактической последовательности при их выполнении и умели правильно взаимодействовать с искусственным интеллектом для поиска заданий в современных информационных источниках.

**Ключевые слова:** дидактика, искусственный интеллект, речевая компетентность, лингводидактика, языковая компетентность, педагогика, психология, pragmatika, научно-методические основы, узбекское языкознание, методология, информационно-рецептивный метод, научно-методическая основа, индуктивность, дедуктивность, лексикология, звуковой анализ, коммуникативная компетентность, умение писать, методический принцип.

***Annotation:** The scientific and methodological foundation has been established for the methodological development opportunities of improving students' speech and*

*linguistic competencies through independent learning and educational assignments, aimed at enhancing their linguo-pedagogical competencies. It is considered appropriate to foster students' interest in the subject and provide them with the opportunity to develop multiple speech skills within a single educational task. This approach encourages students to consciously engage in tasks related to speech and linguistic competencies, follow a didactic sequence during execution, and effectively communicate with artificial intelligence to find tasks from modern information sources.*

**Key words:** didactics, artificial intelligence, speech competence, linguodidactics, linguistic competence, pedagogy, psychology, pragmatics, scientific-methodical foundations, Uzbek linguistics, methodology, information-receptive method, scientific-methodical basis, inductive, deductive, lexicology, sound analysis, communicative competence, writing skills, methodological principle.

Zamonaviy oliv ta'lif darsliklari barqaror va mobil bo'lishi kerak. Barqarorlik talablariga muvofiq ravishda darslik mustahkam asosga ega bo'lishi kerak. Mobililik asosiy dizaynni buzmasdan yangi bilim, ko'nikmalarni tezda joriy etish imkoniyatini beradi. Darslikning tarkibiga matn (turli nutq uslubiga doir matnlar-tavsiflar, matnlar-qissa va matnlar-dallilar) asosiy tarkibiy qism va matndan tashqari yordamchi komponentlar (tashkil etish va o'zlashtirish tuzilmasi) kiradi. Bu o'rinda o'zlashtirish tuzilmasi sifatida o'quv topshiriqlari katta vazifa bajaradi.

Darslik o'quv jarayonida talabalarning ongli va faol ishtirokini, o'quv materialining to'liq asosini ta'minlashi lozim. Zamonaviy darslik quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi:

- talabalarni mavzularni o'rganishga da'vat etadi, ishtiyoq uyg'otadi;
- talabaga axborot, ma'lumotlarni taqdim etishning, qidirib topishning mavjud usullari asosida bilimlarni kengaytirish imkonini beradi;
- dars mashg'ulotining borishi va natijalarini tekshirish, o'z-o'zini baholash va korreksiyalash, shuningdek, zarur ko'nikmalarni hosil qilish uchun mustaqil ta'lif topshiriqlarini bajarish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda zamonaviy darslik, innovatsion mediatechnologiyalar asosida ko'plab axborot manbalarini o'ziga birlashtirishi, ularni tortishi, boshqarishi lozim. Mazkur jarayonda ta'lif o'quv topshiriqlari o'quv lug'atlari, audio, video materiallar, mashq va topshiriqlar to'plami, testlar, ko'rgazmali vositalar, elektron resurslar innovatsion mediatechnologiyaga bog'lay olishi, ulardan foydalanishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi kerak. Umumiyligi o'rta ta'lif tizimi uchun yaratilgan darsliklar, tilshunos professor olimlar Qodirov M., Ne'matov H., Mengliev B. va boshqa Ona tili 8-sinflar uchun darsligida o'qitishning qisman izlanuvchanlik va asosan, tadqiqot (izlanuvchanlik) metodlariga tayanilgan, uning mohiyati quyidagicha masalan, "Uyga vazifa" ruknida mashqning sharti talabani mustaqil shug'ullanishga undaganligini ko'rish mumkin<sup>1</sup>.

Izlanuvchanlik quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda muammoni shakllantiradi, uning

<sup>1</sup> Qodirov M. Ne'matov H. Mengliev B. va boshqalar. Ona tili 8-sinflar uchun Darslik. – T.: Cho'lpox. 2019. 8-b.

yechimi guruhsida dars mobaynida aniqlanadi;

- bilim o'quvchilar bilan bo'lishilmaydi. O'quvchilar muammoni o'rganish jarayonida uni mustaqil oladilar, olingen javoblarning turli shakllarini taqqoslaydilar. Natijalarga erishish uchun vositalar ham talabalar tomonidan belgilanadi;
- o'qituvchining faoliyati muammoni hal qilish jarayonini tezkor boshqarish;
- ta'lif jarayoni yuqori intensivligi bilan ajralib turadi, o'qitishga qiziqish ortadi va olingen bilimlar chuqur farqlanadi<sup>2</sup>.

lingvopedagogik kompetensiyalar o'quv topshiriqlari umumiyligi ta'limdan tortib, oliy ta'lif darsliklarigacha bo'lgan asosiy qismini tashkil qilar ekan, berilayotgan topshiriq ijodiy izlanuvchanlikka va mantiqiy fikrlashga undaydi.

Darslik masalasiga ham qisman to'xtalish lozim. Ta'lif mazmuni o'quv adabiyotlarida (darsliklar, ma'lumotnomalar, qo'shimcha o'qish uchun kitoblar, atlaslar, xaritalar, topshiriq va mashqlar to'plamlari, bosma asosida daftarlar va boshqalar) batafsil bayon etilgan. O'quv adabiyotlarining asosiy turi darslik – bo'lajak mutaxassislar uchun muhim bilim manbai, o'rganishning asosiy vositalaridan biridir. Darslik bilan ishslash-materialni og'zaki bayon qilish metodining asosiy turi<sup>3</sup>. Demak darslikda lingvopedagogik va metodik yondashuvlar, bo'lajak ona sinf o'qituvchilari intellektual rivojlanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, salohiyati insonning psixologik (individual tipologik xususiyatlar) va psixolingvistik (o'yin, o'qish, mehnat) faoliyati tajribasi doirasida aks etadi. lingvopedagogik kompetensiyalar boshlang'ich ta'limning zamonaviy darsliklarga mos bo'lish uchun ular takomillashtirilishi kerak. Chunki boshlang'ich ta'lif tizimining "Ona tili", "Ona tili o'qitish metodikasi" darsliklarida ham, savol, mashq va topshiriqlar sifatiga, uning zamon talablariga qay darajada mosligiga e'tibor qaratilmaydi. Bu holat ona tili ta'lif mazmuninig –bo'lajak ona sinf o'qituvchilari tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, malaka hosil qiluvchi, takrorga asoslangan mashqlar, sinash uchun qo'llanuvchi topshiriqlar, fikrlashga o'rgatuvchi savollar ona tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930–1940) chop etilgan darsliklarda ham bugun amalda bo'lgan darsliklarda ham uchramaydi<sup>4</sup> Umumiy mashq atamasi ostida oddiy topshiriq tavsifidagi tavsiyalar o'rinni olgan. Oliy ta'lif tizimida ham mashq va topshiriq o'zaro farqlanmaydi. Talabalar o'z nutqiy muammolari ustida mashq qilmaydi. Ta'lif topshiriqlari an'anaviy shaklda yodlab aytib berishga ixtisoslashgan. Savollar fikrlashga undamaydi.

O.Roziqov, M.Maxmudov, B.Adizov, A.Hamraev muallifligidagi "Ona tili didaktikasi" darsligi orfografik mashqlar tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik hodisalariga bog'liq holda tashkil etishini qayd etadi. Bunday mashqlar vositasida ham fonetika yoki morfologiyadan o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanib, orfografik malaka hosil qilinadi.

<sup>2</sup> To'xliev B, Inog'omova R, Abdulahatova R. Darsliklar bilan ishslash metodikasi. – T.: TDPU.2008. – 51 b.

<sup>3</sup> Axmedova M.E. (hammualliflar) Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik– T.: TDPU 2012. b.(302)

<sup>4</sup> G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T., O'qituvchi, 2001. – 221 b.

*6-topshiriq. So 'zhami bo 'g'inlarga ajratib, chiziqcha bilan yozing. Murabbo, murabbiya, minnatdor, tashabbuskor, ziddiyat, farzand, zabardast, bahram and, tonggi, tingla, alanga, ingichka, ingramoq, mingoyoq, daryo.*

Bu topshiriq asosida mashq qilinganda fonetikadan o'r ganilgan bilimlar mustahkamlanib, orfografik malakalar yanada rivojlantiriladi. Shu tufayli, uni fonetik-orfografik mashq shaklida qaraymiz<sup>5</sup>.

Shu o'rinda G'.Hamroev va M.E.Axmedovaning "mashq", "topshiriq" va "savol" atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o'rni hamda ahamiyati haqidagi mulohazalariga e'tibor berish lozim. Metodist-olimlar dastlab, M.Saidovning o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatları davomida mustaqil "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini, pedagogika fanlari doktori Asqar G'ulomovning "mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli," degan fikriga qo'shilishi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etgan holda bu borada o'z yondashuvini bayon qiladi<sup>6</sup>, ya'ni o'ziga qadar mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillarda kelingan ilmiy xulosalardan farqli o'laroq, mustaqil ta'lim topshirig'i mashq tarkibiga emas, aksincha, mashqlar topshiriq tarkibiga kiritilishi, vazifa jihatidan savol va mashqqa qaraganda kattaroq, kengroq tushuncha ekanligi asoslidaydi.

*Fonetik mashqlar. Nutq tovushlari, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo 'g'in, bo 'g'in turlari (ochiq va yopiq bo 'g'inlar), urg'u mavzulariga oid mashqlar sirasiga kiradi. Misol keltiramiz.*

**1-topshiriq.** Nuqtalar o 'rniga mos tovushlarni qo 'yib, sozlarni o 'qing. Darax..., sus..., g 'ish..., qan..., kish..., pish..., balan..., do 's..., pas..., monan..., pisand..., mush...., Leksik mashqlar. So 'z ma 'nolari, so 'zning o 'z va ko 'chma ma 'nolari, ko 'p ma 'noli so 'zlar, so 'z va termin hamda ularning o 'xhash va farqli tomonlari, antonim va sinonimlar, omonimlar, lug 'at boyligi, o 'zbek tili leksikasining boyish manbalari kabi nazariy bilimlarni o 'rgatish, mustahkamlash maqsadida leksik mashqlardan foydalilaniladi. Misol uchun antonimlar bo 'yicha mashq qilishga mo 'ljallab tuzilgan topshiriqnini keltiraiz.

**2-topshiriq.** Ko 'chiring. Antonimlarning tagiga chizing.

*Bir shirin so 'z odamga,*

*Asal bo 'lib tuyular.*

*Bir achchiq so 'z olamga*

*Zahar bo 'lib tuyular. (Po 'lat Mo 'min)<sup>7</sup>.*

Bizningcha ham, ta'lim topshiriqlarida mashqni o'z ichiga oladi, topshiriqlar

<sup>5</sup> Roziqov O., Mahmudov M., Adizov V., Hamrayev A. Ona tili didaktikasi. Darslik. – T.: Yangi asr avlod. 2005. 140-148-b.

<sup>6</sup> Hamraev G'.Ona tili o'qitishning samarali usullari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: Bayoz nashriyoti. 2018. 9-b.

<sup>7</sup> Roziqov O., Mahmudov M., Adizov V., Hamrayev A. Ona tili didaktikasi Darslik. – T.: Yangi asr avlod. 2005. 140-148-b.

o‘quvchini yo‘naltiradi, sinaydi; takrorga asoslangan mashqlar esa ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi. Bo‘lajak ona sinf o‘qituvchilar boslang’ich ta’lim tizimida “Ona tili o‘qitish metodikasi (savodxonligi)” “Ona tili” fanlarini o‘qitishda “Orfografiya” va “Orfoepiya” bo‘limlari nutqiy malaka bilan bevosita aloqador bo‘lganligi bois ularni o‘qitish vositalari ham bir-biriga chambarchas bog‘liq. G‘.Hamroev umumiy o‘rta ta’limda M.E.Axmedova oliv ta’limda ona tili o‘qitish metodikasini to‘g‘ri tahlil etganlaridek, *mashq* va *topshiriq* atamalariga o‘zgacha yondashish zarur. Darslik va qo‘llanmalarda ko‘p uchraydigan “*mashq*”, “*topshiriq*” atamalari o‘zaro uyadoshlik hosil qilsa-da, ular orasida sinonimik munosabat yo‘q. Biroq kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, uzoq yillardan beri amalda bo‘lgan qator darslik va qo‘llanmalarda mazkur ikki tushunchaning berilishida chalkashlik, birining o‘rnida boshqasining qo‘llanilishi kabi holatlarni ko‘rish mumkin:

*“333-mashq. Berilgan she’riy misradagi so‘zlarni unli va undoshga ajrating.*

*Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonliq hargiz,*

*Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir”.*

*“2-topshiriq. Gapni aniqlovchili, to‘ldiruvchili, holli birikmalarga ajrating”.*

Keltirilgan misollardan ham ko‘rinib turibdiki, darsliklarda *mashq* va *topshiriqlarining* berilishi, mazmuni bir-biridan farqlanmaydi. Ikkalasida ham “*ajrating*” topshirig‘i berilmoxda<sup>8</sup>.

Yangi mazmunda yaratilgan “Ona tili” darsligida *topshiriqlarga* yangicha yondashilgan. Unda talabalarga ko‘proq mustaqil topshiriqlar berilgan. Buning yana bir muhim tomoni shuki, talabaga mustaqil bajarish uchun aniq *topshiriq* beriladi. Amaldagi aksariyat darsliklarda topshiriqlar, *topshiriq* sifatida savollar beriladi. Uni talaba qisqa fursatda bajarib qo‘yishi, amaliy ahamiyatga ega bo‘lmashligi mumkin. Endi “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsliklari mazmuniga to‘xtalamiz. Unda mustaqil ta’lim o‘quv topshiriqlaridan qanday foydalanimishi, mazmuni, shakli, tarkibini ko‘rib chiqamiz.

*1- topshiriq:*

- a) matnni o‘qing, matn mazmunini to‘liq tinglab tushuning;
- b) matndagi tayanch so‘z va iboralarni ajratib yozing;
- d) matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalang.

*2- topshiriq. Quyidagi tayanch so‘zlarni yod oling: Ma’muriy [boshqaruvga, ma’muriyatga aloqador] - ma’muriyatga doir. Ma’muriyat yo‘li bilan amalgaloshiriladigan.*

*Ma’muriy hudud. Viloyat [ chekka joy, o‘lka] - mamlakatning bir va undan ortiq shaharlarini o‘z ichiga oladigan yirik ma’muriy-hududiy bo‘linma. O‘zbekistonning 12 viloyati.*

*Hudud - ma’lum chek-chegaraga ega bo‘lgan, chegara bilan o‘ralgan yer; ma’lum davlat, viloyatga tegishli bo‘lgan yer, maydon. O‘zbekiston hududi.*

*Sanoat [ishlab chiqarish] - xalq xo‘jaligining xomashyoni qayta ishslash, yer osti boyliklarini qazib olish, ishlab chiqarish vositalarini va keng iste’mol mollarini*

<sup>8</sup> Hamraev G‘.Ona tili o‘qitishning samarali usullari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: Bayoz nashriyoti. 2018. 11-b.

*yaratish. Yengil sanoat. Oziq-ovqat sanoati. Soha - inson faoliyati, ilm-fan, madaniyat va boshqalarning har bir tarmog'i. Sanoat sohalari. Qishloq xo'jaligining yetakchi sohalari.*

*Mahsulot - ishlab chiqarilgan narsa. Yalpi mahsulot. Intellektual inahsulot - ma'naviyat, ilm-fan, texnika sohasidagi izlanishlarning natijalari, adabiyot va san'at asarlari majmui. Eksport - [ingl. export < lot. exportare - chetga (tashqi bozorga) chiqarmoq] -sotish yoki boshqa maqsadlarda chet ellarga mol yoki kapital chiqarish. O'zbekiston kopgina mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatiga ega<sup>9</sup>.*

Darslikning yutuq tomoni shundaki, mustaqil ta'lif topshiriqlari o'quv materiali talabalarning ixtisoslik yo'nalishlariga moslangan. Darslikning mazkur qismida mashq namunalari berilmagan. Umuman, har bir mashg'ulotda mavzuga aloqador mashq, albatta, bo'lishi lozim.

Oliy o'quv yurtlarining onata'lim yo'nalishlari uchun tayyorlangan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligi mazmunida quyidagi o'quv topshiriqlaridan foydalanilgan:

Savol va topshiriqlar

1. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti nimadan iborat?
2. Metodika fani qanday masalalarini o'rganadi?
3. Ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifalarini ta'riflab boring.
4. Onasinfarda ona tili o'qitish metodikasi fanining asosiy bo'limlarini aytib bering.
5. Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik asoslarini izohlang.
6. Ona tili o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligini tushuntiring.
7. Ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos tamoyillari qaysilar? Ularga tavsif bering.
8. Nazariy metod nima va u qanday hollarda tatbiq etiladi?
9. Empirik metodni tushuntirib bering.
10. Eksperiment vazifasiga ko'ra qanday hollarda o'tkaziladi?
11. Ona tilini o'qitish tarixiga tavsif bering.
12. Onasinfarda ona tili mashg'ulotlarining turi va mazmunini sharhlang.
13. Onasinfilar ona tili davlat ta'lif standarti va dasturiga o'z nuinosabatingizni bildirib taqriz yozing.
14. "Ona tili - onasinfarda o'quv predmeti" mavzusida ma'ruza tayyorlang<sup>10</sup>.

Navbatdagi topshiriq pedagogik-metodik yo'naltiruvchi tavsifda bo'lib, talabada mustaqil ishslash asosida so'z boyligiga ega bo'lishga va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili ta'limga qo'yilgan eng muhim talablardan biri bo'lajak mutaxassislar faoliyati asosida talabalarni o'z fikrlarini mustaqil bayon qilish faoliyatiga tayyorlash

<sup>9</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.Darslik. –T.: 2004. 45-b.

<sup>10</sup> Qosimova K. , Matchonov S.M, G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh.,Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lif fakulteti talabalari uchun darslik ]. — T.: «NOSHIR», - 2009. 18-b.

ekanligi unutmaslik lozim<sup>11</sup>.

2009 yilda nashr etilgan mazkur darslikda talabalarni baholash bo'yicha ham talabalar – bo'lajak mutaxassislarga yaxshi tavsiyalar, baholash mezoni sifatida xizmat qiluvchi o'quv material berilgan. Boshlang'ich ta'llim topshiriqlari tuzishda asosan quyidagi mezonlarga tayanish kerak: Tayyorlov sinflarning ta'llim mazmuni va tashkil etish muddati bir xil bo'lmasa-da, lekin bu davrda bolalaming nutqiy tayyorgarfigini o'rganish uchun quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi:

1. O'qish ko'nikmasini aniqlash. a) so'zni sidirg'a o'qiydi; b) bo'g'inlab o'qiydi; d) harflab o'qiydi (noto'g'ri o'qish); e) anchagina harflarni biladi, lekin o'qishni bilmaydi; f) ayrim harflarni taniydi.

2. Yozuv ko'nikmasi. a) hamma harfni yozishni biladi, so'z yozadi (bosma yoki yozma); b) ayrim harflarnigina yozishni biladi (bosma yoki yozma); d) yozishni umuman bilmaydi.

3. Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi. a) so'zni bo'g'inqilarga bo'ladi; b) so'z yoki bo'g'indagi tovushni ajratadi; d) hamma tovushni to'g'ri talaffuz qiladi; e) ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi (qaysi tovushlar ekani hisobga olinadi); f) nutqining baland yoki pastligi, diksiyasiga e'tibor qaratiladi.

4. Og'zaki bog'lanishli nutqi. She'rni yoddan o'qish. a) 3 ta yoki undan ortiq she'rni biladi, uni zavqlanib aytadi; b) 1—2 ta she'rni biladi, aytishga uyaladi; d) birorta she'rni yoddan o'qishni bilmaydi.

5. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Ertak aytish. a) bir yoki bir nechta ertakni biladi va aytib bera oladi; b) ertakni biladi va uni aytishga harakat qiladi, lekin ayta olmaydi; d) ertak avtishni bilmaydi, o'rganishga ham harakat qilmaydi.

6. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Fikr bayon qilish ("Rasmida nimalar ko'rayotganining aytib ber").

- a) 20 so'zdan ortiq bog'lanishli hikoya, bir necha gap tuza oladi;
- b) 10 tadan 20 tagacha so'z, bir necha gap tuza oladi;
- d) 10 tagacha so'z bilan bog'lanishli nutq tarzida javob qaytara oladi;
- e) 3-4 so'z bilan qisqa javob bera oladi<sup>12</sup>.

Grammatik mashqlar. Grammatik mashqlar dastlab ikki guruhga ajraladi: morfologik mashqlar, sintaktik mashqlar. Morfologik mashqlardan so'zning tarkibi, so'z yasash, qo'shimchalar, so'z turkumlari, mustaqil va yordamchi so'zlar bo'yicha nazariy bilim larni mustahkamlash jarayonlarida foydalaniladi. Turli morfologik hodisalar — mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, turli morfologik kategoriylar — turlanish va tuslanish kabi hodisalar bo'yicha intellektual malakalarini shakllantirishda morfologik mashqlar asosiy omil hisoblanadi. Morfologik mashqlarga misol keltiramiz. 3-topshiriq. Nuqtalar o'miga qavs ichidagi ot yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring. Yomonning bir qil. (-iq,-ik, -ig')i ortiq. Sintaktik bilimlar asosida gap, so'z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, sodda va qo'shma gaplarga oid intellektual malakalarini shakllantirishda

<sup>11</sup> G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'llimi mazmuni. –T.: O'qituvchi, 1996. – 23-b.

<sup>12</sup> Qosimova K. , Matchonov S.M, G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'llim fakulteti talabalari uchun darslik. — T.: «NOSHIR», - 2009. 18-b.

sintaktik mashqlardan foydalaniлади. Misollar: 4-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga to‘ldiruvchilar topib qo‘ying. Odamning yuzi.....issiq. Nodon kishi.....bino qo‘yar. 5-topshiriq. Berilgan ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantiring. 1. “Xalq g‘ayrat qilsa, umidi tush bo‘lib qolmaydi”, — dedi Sayramov ma’nodor kulib. 2. “Bug‘doy noning bo‘lmasin, shirin so‘zing bo‘lsin”, — deydi dono xalqimiz<sup>13</sup>.

Oliy ta’lim tizimida ona ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning hammasi ham metodist olim bo‘lmasligini inobatga olinsa, yuqorida keltirilgan savol va mustaqil ta’lim topshiriqlar mazmuni biroz o‘zgarishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qodirov M. Ne’matov H. Mengliev B. va boshqalar. Ona tili 8-sinflar uchun Darslik. – T.: Cho‘lpon. 2019. 8-b.
2. To‘xliev B, Inog‘omova R, Abdulahatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. – T.: TDPU.2008. – 51 b.
3. Axmedova M.E. (hammualliflar) Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik– T.: TDPU 2012. b.(302)
4. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T., O‘qituvchi, 2001. – 221 b.
5. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov V., Hamrayev A. Ona tili didaktikasi. Darslik. – T.: Yangi asr avlod. 2005. 140-148-b.
6. Hamraev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: Bayoz nashriyoti. 2018. 9-b.
7. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov V., Hamrayev A. Ona tili didaktikasi Darslik. – T.: Yangi asr avlod. 2005. 140-148-b.
8. Hamraev G‘.Ona tili o‘qitishning samarali usullari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: Bayoz nashriyoti. 2018. 11-b.
9. Qosimova K. , Matchonov S.M, G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh.,Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Onata ’lim fakulteti talabalari uchun darslik |. — T.: «NOSHIR», - 2009. 18-b.
10. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. –T.: O‘qituvchi, 1996. – 23-b.
11. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov V., Hamrayev A. Ona tili didaktikasi Darslik. – T.: Yangi asr avlod. 2005. 140-141-b.

<sup>13</sup> Roziqov O., Mahmudov M., Adizov V., Hamrayev A. Ona tili didaktikasi Darslik. – T.: Yangi asr avlod. 2005. 140-141-b.